



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti




№8(1)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 338 sahifa,
3-avgust, 2026-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Sun'iy intellekt muhitida o'sib kelayotgan Alfa avlodining shaxsiy va psixik rivojlanishi	10
Jo'rayeva Dilfuza Abdug'aniyevna	
Teng yonli uchburchak xossalari va kesmaning o'rta perpendikulyari xossalardan foydalangan holda masalalar yechish	13
Namozov Diyorbek Baxtiyor o'g'li	
Xiva xonligining siyosiy boshqaruv modeli: Buxoro va Qo'qon xonliklari bilan qiyosiy tahlili.....	17
Mutallibjonov Boburmirzo	
Boshlang'ich sinfda informatika fanini o'qitish metodikasi	26
Nosirova Feruza Baxadir qizi	
Funksional savodxonlik asosida bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini professional rivojlantirishning strukturaviy-faoliyatli modeli.....	30
Gafurova Mahfuza Abbosovna	
Mutafakkirlar asarlarida bolalar faolligini shakllantirishda o'yinlardan foydalanishning yoritilishi	35
Ravshanova Uldona Narziboyevna	
Ijtimoiy-madaniy qadriyatlar variatsiyasi sharoitida talabalarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish mazmuni	39
Vorisova Barnoxon Olimjon qizi	
Huquqiy ta'lim va huquqiy tarbiya integratsiyasi orqali yoshlar orasida huquqbuzarliklarning oldini olish	43
Habibjonov Izzatbek Dilshodjon o'g'li	
Bo'lajak o'qituvchilarning tanqidiy va refleksiv tafakkurini rivojlantirishda antfragil yondashuvning o'rni.....	51
G'ulomjonova Ziyodaxon A'zamjon qizi	
Badiy adabiyotning yoshlar tarbiyasidagi didaktik imkoniyatlari	57
Irisboyeva Xotiraxon Utbasarovna	
Talabalarining o'quv amaliyoti jarayonida kasbiy mobilligini rivojlantirishda dual ta'limga asoslangan metodikani takomillashtirish	61
G'ofurov To'liqinjon	
Didactic Opportunities of Content and Language Integrated Learning (CLIL) Technology in English Language Teaching	67
Ismailova Aziza Dilshodovna	
Фольклорные источники в историко-географическом изучении памятников Устюрта.....	72
Канаатов Есимкан	
Xorijiy davlatlar tajribasida o'zgarishlarni boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirish amaliyoti.....	76
Abdullayev Amirulla Xazratovich	
Algoritmik faollikni rivojlantirishning zamonaviy metodik yondashuvi	81
Pardayeva Kamola Sultonovna	
Sun'iy intellekt va startap ekotizimi asosida talabalarining tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish	86
Imomaliyev Quvvat Choriyevich	
Maktab ta'limida o'qitish sifatini baholashning ko'p tarmoqli raqamli-diaagnostik tizimini joriy etish va boshqarish	91
Nurmetov Tursunbek Kenjayevich	
Event ta'lim texnologiyasi vositasida talabalarining o'qish samaradorligini oshirish	96
Latipova Ma'rifat Salohiddin qizi, Bo'tayeva Saodat Xudoyor qizi	
Texnologik ta'lim yo'nalishi talabalarining malakaviy va pedagogik amaliyotlari uzviyligini ta'minlashning metodik modeli	99
Mardonov Maqsudbek Maxmudovich	
Nogironligi bo'lgan bolalarni tarbiyalayotgan oilalarga ijtimoiy-psixologik yordam ko'rsatishning nazariy-metodologik asoslari	103
Umarova Umidaxon Ibaydullayevna	



Chizmachilik darslarida animatsiyali modellarni qo'llashning pedagogik asoslari	108
<i>Xo'janiyozov Shokir Rustamovich</i>	
Fanlararo aloqadorlik asosida tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida ingliz tilini o'qitish metodikasi va uning eksperimental samaradorligi	114
<i>Isroilova E'zoza Akmal qizi</i>	
Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida ingliz tilini o'qitishda veb-kvestlar va raqamli keyslarni samarali qo'llash usullari	119
<i>Shermatova Ra'no O'ktam qizi, Baxodirova Gulnoz Kamalovna</i>	
Xalq og'zaki ijodi asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ faoliyatini takomillashtirish texnologiyalari	124
<i>Abduraximova Muxabbat Allayevna</i>	
Bo'lajak fizika o'qituvchilarini nanotexnologiya sohasidagi bilimlarni taqdim etishga va o'qitishga tayyorlash metodikasi	129
<i>Sottarov Abduvali Umirqulovich</i>	
Raqamli ta'lim muhitida talabalarning raqamli tafakkurini rivojlantirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish	133
<i>Nuraliyeva Feruza Abdusalim qizi</i>	
Emotsional intellekt va raqamli kommunikatsiya: yoshlar psixologiyasida zamonaviy tendensiyalar	137
<i>Qahharov Nuriddin Sherbek o'g'li</i>	
Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda "o'quv burnout" (o'qishga nisbatan charchash va sovish) holatining oldini olishda motivatsion pedagogik texnologiyalar	142
<i>Babajanova Gulmira Muratbayevna</i>	
Linguopragmatic Errors in Artificial Intelligence-Generated Translations	147
<i>Aytmuxamedova Durdona Jasur qizi</i>	
Клинические особенности аллергодерматозов у лиц, проживающих в Ташкентской области	153
<i>Абдуллаева Ф. Б., Саипова Н. С.</i>	
Tyutorlik faoliyatining pedagogik ahamiyati	160
<i>Ashirova Gulnora Xayrullayevna</i>	
Innovatsion yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbga yo'naltirish metodikasini takomillashtirish	164
<i>Nurmuratova Iroda Nuriddinovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabga tayyorlashda diqqat yetishmasligi va giperfaollik: mnemotexnik korreksiya	169
<i>Egamberdiyeva Xuriyat Egamberdiyevna, Kaxxarova Ozoda Abdimo'minovna</i>	
The Historical Development of Translation	173
<i>Sharopova Gulnoza Odil qizi</i>	
Integratsiya jarayonlarini samarali boshqarishga yo'naltirilgan metodik tizim	176
<i>L. T. Xudaybergenova</i>	
Multimodal matnlarni tanlash va dalillarga asoslangan o'quv topshiriqlari metodikasini ishlab chiqish	180
<i>G'ofurova Dilshodaxon Toxirjon qizi</i>	
Bo'lajak tibbiyot xodimlarining diagnostik kompetensiyalarini shakllantirishda innovatsion ta'lim texnologiyalarining o'rni: ilmiy adabiyotlar sharhi	186
<i>Xalimova S. A.</i>	
The Role and Opportunities of Artificial Intelligence (AI) in the Management of Educational Institutions	191
<i>Abduqahorova Lobar Oybekovna</i>	
Malaka oshirish jarayonida maktab direktorlarining mediakompetentligini rivojlantirishning tashkiliy-boshqaruv mexanizmi	197
<i>Xidirova Maftuna Ilhom qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim muassasalarida iqtisodiy tarbiya berishda STEAM va an'anaviy usullarning qiyosiy tahlili	205
<i>Boltayeva Nasiba Ilhom qizi</i>	

Kasb-hunar ta'limida elektromobillar va robototexnika yo'nalishlarini rivojlantirish: xalqaro hamkorlik tajribasi va "2+1" dual ta'lim modeli.....	209
<i>Dushanov Nuriddin Qo'ldoshovich, Suvonov Murodjon Abdurahmon o'g'li, Ibragimova Dinara Rustam qizi, Karimova Oygul Ro'ziyevna, Avliyoqulov Muxammad Mustafoyevich</i>	
Multimodal matnlarni tanlash va dalillarga asoslangan o'quv topshiriqlarining metodikasini ishlab chiqish ...	212
<i>G'ofurova Dilshodaxon Toxirjon qizi</i>	
Maktabgacha ta'limda "ijodiy faoliyat" va "kreativlik" konseptlarining nazariy-metodologik interpretatsiyasi...	218
<i>Komila Aytmuratova</i>	
Bo'lajak chet tili o'qituvchilarining leksik kompetensiyasini shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasi asosida rivojlantirishga doir mashqlar tipologiyasining samaradorligi.....	222
<i>Maxmudova Feruza Salimjonovna</i>	
O'zbek va rus nasrida oilaviy munosabatlarning badiiy-psixologik talqini	227
<i>Qurbonova Malika Toxir qizi</i>	
O'quv-biluv kompetensiyasining nazariy asoslari va zamonaviy pedagogik yondashuvlar	230
<i>Saydaxmedova Barno Batirovna</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining matematik tayyorgarligi tarkibi: TIMSS va PISA xalqaro baholash dasturlari asosidagi nazariy tahlil	235
<i>Abdusattarova Zaynab</i>	
Fizikani o'qitishda barqaror taraqqiyot tushunchalarini rivojlantirish: O'zbekiston kontekstida adabiyotlar tahlili.....	243
<i>Avazova Oltin</i>	
Futbolda 11–12 yoshli darvozabonlarni texnik-taktik jihatdan tayyorlashda maxsus mashqlarning ahamiyati	247
<i>Ibragimov Qosimbek Isroil o'g'li</i>	
Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanni o'qitish jarayonida sun'iy intellekt yordamida foydalanib nazariy bilimlarni hayotga tatbiq qilib o'rganish metodlari	253
<i>Jo'layeva Munira Choriyevna</i>	
Creativity-Oriented Language Teaching in Karakalpak Folk Pedagogy	256
<i>Khodzhanizayeva Aysel Aytmuratovna</i>	
Bo'lajak pedagoglarda estetik kompetentlikni rivojlantirishning metodik asoslari.....	264
<i>Saidova Dilorom Erkinovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda matematik muammolarni hal etish ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi	269
<i>Farhodova Sevara Qo'ziboy qizi</i>	
Boshlang'ich sinflarda ona tili darslarida tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyalari.....	274
<i>Norkulova Jasmina Sodikovna</i>	
Umumta'lim maktablarida matematik kechalar orqali o'quvchilarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirish samaradorligi.....	277
<i>Saytniyozov Adham Annamurhammet o'g'li</i>	
Tibbiy va pedagogik ta'lim jarayonida "Case Study" metodini qo'llash orqali talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish	282
<i>Shaymatova Azizaxon Rustambekovna</i>	
Dutor ijrochiligining amaliy-texnik jihatlariga e'tibor qaratish va ushbu jarayonni rivojlantirish	286
<i>Shodiyeva Shahinabonu Shoirjon qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik texnikani shakllantirish texnologiyalari	293
<i>Turimbetova Sveta Muhammedaliyevna</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti va oila o'rtasidagi hamkorlik menejmentini takomillashtirishda direktor o'rinbosarining roli	297
<i>Xolnazarova Shaxnoza Baxodir qizi</i>	
Адаптивная геймификация в школьном обучении физике	304
<i>Индира Бахадуровна Ерлепесова</i>	
Bo'lajak pedagoglarda qadriyatlar tizimining shakllanishiga ta'sir etuvchi psixologik omillar	309
<i>Taylanova Sh. Z.</i>	



Metakognitiv kompetensiya: mohiyati va mazmuni, tarixiy evolyutsiyasi.....	317
<i>Xasanova Feruza Xurramovna, Abdullayeva G. A.</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy tayyorgarlikni ta'minlovchi refleksiv va motivatsion mexanizmlar	322
<i>Fayziyeva Umida Asadovna</i>	
Arab tilida jumla tuzilishi: ismiy va fe'liy jumlalarining nahviy tahlili.....	328
<i>Quqonboyeva Moxlaroyim Elmurodjon qizi</i>	
"Maugli" asarining didaktik ahamiyati va obrazlar tahlili	333
<i>To'g'onova Dinoraxon Mansurjon qizi</i>	



“MAUGLI” ASARINING DIDAKTIK AHAMIYATI VA OBRAZLAR TAHLILI

UO'K: 820:371.3

To'g'onova Dinoraxon Mansurjon qizi
TOSHDOTAU 2-bosqich tayanch doktoranti

ORCID: 0009-0000-5914-6571

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz yozuvchisi Rudyard Kiplingning butun dunyoga mashhur “The Jungle Book” (“Maugli”) asarini umumta’lim maktablarida o’qitishning samarali metodlari tahlil qilindi. Xususan, 4K modeli (tanqidiy fikrlash, yaratuvchanlik, kommunikatsiya, kollaboratsiya) asosida o’quvchilarning asar tahlilini hayot bilan bog’lab o’rganish yo’llari ko’rib chiqildi. Tadqiqotda zamonaviy pedagogik yondashuvlar - interaktiv metodlar, muammoli savollar, multimedia vositalaridan foydalanish samaradorligi ilmiy asosda yoritildi.

Kalit so’zlar: Rudyard Kipling, “Maugli”, 4K modeli, muammoli savol, multimedia texnologiyasi, ingliz adabiyoti, kommunikatsiya, kollaboratsiya, kritik fikrlash, kreativlik.

Abstract: This article analyses effective methods of teaching the world-famous work “The Jungle Book” (Mowgli) by the English writer Rudyard Kipling in general secondary schools. In particular, based on the 4K model (critical thinking, creativity, communication, collaboration), ways of teaching students to connect the analysis of the work with real life are examined. The study also highlights, on a scientific basis, the effectiveness of modern pedagogical approaches-interactive methods, problem-based questions, and the use of multimedia tools.

Key words: Rudyard Kipling, “Mowgli”, 4K model, problem-based question, multimedia technology, English literature, communication, collaboration, critical thinking, creativity.

Аннотация: В данной статье анализируются эффективные методы преподавания всемирно известного произведения английского писателя Редьярда Киплинга “Книга джунглей” (“Мaugли”) в общеобразовательных школах. В частности, рассматриваются пути обучения учащихся анализу произведения с опорой на модель 4К (критическое мышление, креативность, коммуникация, коллаборация), связывая содержание произведения с реальной жизнью. В исследовании на научной основе раскрывается эффективность современных педагогических подходов - интерактивных методов, проблемных вопросов и использования мультимедийных средств в образовательном процессе.

Ключевые слова: Редьярд Киплинг, “Мaugли”, модель 4К, проблемный вопрос, мультимедийные технологии, английская литература, коммуникация, коллаборация, критическое мышление, креативность.

KIRISH

Globallashuv, axborot oqimining tezlashuvi va mehnat bozorida o’zgarishlar ta’limdan o’quvchiga tayyor bilim berish bilangina cheklanmasdan, uni mustaqil fikrlash, muammoni hal qilish, o’z fikrini asosli ifodalash va boshqalar bilan samarali ishlashga tayyorlashni talab etmoqda. O’zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida ta’lim mazmunini yangilash, o’qitish metodikasini takomillashtirish va xalqaro tajriba asosida zamonaviy kompetensiyalarni shakllantirish vazifalari belgilangan ^[1]. Mazkur vazifalar adabiyot darslarida ham mazmunni yodlashdan tahliliy, kommunikativ va ijodiy faoliyatga o’tishni taqozo etadi. Bugungi globallashuv davrida ta’lim tizimi zimmasida turgan asosiy vazifalardan biri – yoshlarda XXI asr ko’nikmalarini shakllantirishdan iborat. Bu ko’nikmalar orasida 4K modeli (tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, muloqot, hamkorlik) alohida ahamiyat kasb etadi. Ingliz adabiyotiga mansub asarlarning maktab darsligidan joy olishi esa ushbu ko’nikmalarni rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi.

Rudyard Kiplingning 1894-yilda nashr etilgan “The Jungle Book” to’plamidagi Maugli haqidagi hikoyalar bolalar adabiyotining mashhur namunalaridan biridir. Asarda inson va tabiat munosabati, shaxsning muhit ta’sirida shakllanishi, jamiyat qoidalari, hokimiyat va adolat, sadoqat, qo’rquv hamda jasorat kabi masalalar hayvonlar obrazi va sarguzasht syujeti orqali ifodalangan. 2024-yilgi 5-sinf “Adabiyot” darsligining II qismida

“Mauglining birodarlari” va “Yo'lbars, yo'lbars” parchalarining berilishi mazkur asarni o'quvchilarning o'qish savodxonligi va adabiy kompetensiyasini rivojlantirish uchun dolzarb materialga aylantiradi ^[2:128]. “Maugli” asari nafaqat sarguzasht asari, balki chuqur axloqiy, ijtimoiy va tarbiyaviy mazmunga ega bo'lib, o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirishga xizmat qiladi. Asarda inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlar, jamiyat qoidalari masalalari aks etgan.

Zamonaviy taraqqiyot va globallashuv sharoitida jamiyat hamda yosh avlodning dunyoqarashi soniya sayin o'zgarib, yangicha ko'rinish tus olmoqda. Bolalarning fikrlashi, qiziqishlari hamda bilimga bo'lgan munosabati-ning tubdan o'zgarishi ta'lim tizimiga innovatsion yondashuvlarni joriy etishni talab qilmoqda. O'quvchilarning XXI asr kompetensiyalariga ega shaxs bo'lishida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish bu jara-yonni samarali tashkil etishga xizmat qiladi. O'quvchilarning badiiy asarlarga bo'lgan qiziqishini oshirish, tahlil qilish ko'nikmasini rivojlantirish, ijodiy fikrlashni qo'llab-quvvatlashda ular uchun erkin muhit yaratish asosiy shartlardan biri sanaladi.

Professor-ustozlar, izlanuvchilar tomonidan yaratilayotgan zamonaviy metodlar, innovatsion texnologi-yalarni dars jarayonida oqilona qo'llash ta'lim samaradorligini oshiradi va o'quvchi-yoshlarning mustaqil bilim egallashlariga yordam beradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Metodist olimlarning o'rganishlari natijasida bugungi kunda turli xil metodlar, o'qitish usullari ta'lim tizimiga kirib kelmoqda. 2016-yil yanvar oyida AQSH Kongresi tomonidan tasdiqlangan ma'lumotlarga ko'ra, XXI asrga tayyor bo'lish uchun o'qituvchilarda zarur bo'lgan 4 ta kompetensiya mavjud. Ushbu model AQSHdagi maktablar va professional tayyorlov dasturlari tomonidan qabul qilinib, amaliyotga joriy etilgan. Tadqiqot asosan o'qituvchilar uchun professional rivojlanish dasturida 4K metodidan foydalangan holda o'qitish va o'rganish jarayoniga qaratilgan. Bu model o'z nomi bilan 4 ta tamoyilni qamrab oladi:

- 1. Kollaboratsiya (fransuzcha collaboration)** – umumiy manfaatga birgalikda erishish uchun ikki yoki undan ko'proq kishining sherikchiligi demakdir. Ta'lim oluvchining jamoa bo'lib ishlash qobiliyatini shakl-lantirish;
- 2. Kommunikativlik** – odamlar bilan muloqot qilish qobiliyatini rivojlantirish;
- 3. Kreativ fikrlash** – o'z maqsadiga erishish yo'lida yangiliklarga qo'l urish, noodatiy qarorlar qabul qilish, ixtirochilik ko'nikmalarini o'rganish;
- 4. Kritik fikrlash** – o'z mustaqil fikriga ega bo'lish va uni ifoda etish, masalaga tanqidiy yondashuv demakdir ^[3:153, 159].

Bugungi kunda keng yoyilayotgan ushbu modelda bilimlar dars davomida emas, balki o'quvchi faoliyatida shakllanishi 4Kning konseptual asoslaridan sanaladi. O'qituvchi yo'l ko'rsatuvchi ro'lida bo'ladi. Bilim bilan bir qatorda faoliyatni, ko'nikmani rivojlantirishga urg'u beradi. Zamonaviy jamiyat ehtiyojlariga mos shaxsni tayyor-lash bu kunning mavzusidir. Yangiliklarni inobatga olgan holda, ta'lim tizimiga joriy qilishni boshlang'ich sinf darsliklarining aynan 4K tamoyili asosida ishlab chiqilganligida ko'rish mumkin. Boshlang'ich ta'lim – shaxs shakllanishi davrining ilk va muhim bosqichidir. Bu davr bola ong ostida olamni anglash, tasavvur va bilimlar poydevorini tiklash pallas bo'lganligi bois katta e'tibor talab etiladi. Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida o'qitish metodikasini takomillashtirish vazifasi belgilangan. Shunga muvofiq, ilg'or xorijiy tajri-balar asosida 1–4-sinf darsliklari yangidan “4K” modeli asosida tayyorlanganligi ta'lim tizimini yangi bosqichga olib chiqdi. Ya'ni, bu tamoyilda quruq ma'lumotlarni yod oldirish, shunchaki o'qish va yozishni o'rgatish bilan cheklanilmaydi. O'quvchilar nafaqat fanlarni, balki XXI asrda zarur bo'lgan hayotiy ko'nikmalarni ham egallaydi.

Bolalar adabiyotini o'qitishda kitobxonning yoshini hisobga olish juda muhimdir. Maktabgacha yosh-dagi bolalar uchun asarlarning oddiy va ko'rgazmali, ezgulik va yovuzlikning sodda ziddiyatiga asoslangan bo'lishi zarur bo'lsa, o'smirlar uchun esa murakkab qahramonlarning ruhiyati ochib beriladi. V.G. Belinskiy bolalar yozuvchisi bo'lishning mas'uliyatli ekanligini nazarda tutib yozgan edi: “Bolalar bilan obrazlar vosita-sida gapirish uchun ularni bilmoq kerak, o'zing bola bo'la olishing lozim, bemaza ma'noda emas-ku, ammo bolalarcha soddadil xarakter sohibi sifatida qayta tug'ilmog'ing darkor. Bu – o'zicha bir iste'doddur. Ehtimol, bolalarni seva bilish, ularning ehtiyojlarini, yosh xususiyatlarini va o'zgachaliklarini chuqur anglamoq – buning eng muhim shartlaridandir” ^[4:21].

Bolalar adabiyotining o'ziga xos xususiyatlaridan biri o'zgaruvchanligidir. Bu xususiyat, avvalo, kitobxon-ni yoshiga, tarixiy davr va ijtimoiy muhitga bog'liqdir. Shuningdek, bolalar adabiyoti syujetning dinamik va harakatga boy bo'lishini talab qiladi, ya'ni unda voqealar rivoji tezkorlik bilan sodir bo'lib, qiziqarli, yumorga boy



va fantaziyaga ega bo'lishi lozim. Duglas Barnes buni yanada qat'iyroq aytadi: "Siz nima o'rgatganingiz kabi, qanday o'rgatishingiz ham muhimdir" [5:15].

"The Jungle Book" (Maugli) asari ingliz yozuvchisi Rudyard Kipling tomonidan yozilgan bo'lib, u bolalar adabiyotining klassik namunalaridan biri sanaladi. Adib bu asarni tasodifiy tarzda yozmagan. Unga turtki bo'lgan bir qancha omillar mavjud. Unda muallifning shaxsiy hayot tajribasi, tarixiy muhit va folklor an'analari sintezi natijasida yuzaga kelgan. Avvalo, yozuvchining Hindistonda o'tgan bolalik davri muhim ahamiyat kasb etadi. Kipling Hindistonning tabiati, o'rmon muhiti va hayvonot olamini bevosita kuzatgan bo'lib, bu holat asarda to'laligicha aks etgan. Bundan tashqari, asarning g'oyaviy tuzilishida hind xalq og'zaki ijodi an'analari sezilarli darajada aks etadi. Hayvonlar orqali insoniy fazilatlarni ifodalash, tabiat va jamiyat o'rtasidagi uyg'unlikni ko'rsatish kabi jihatlar sharqona ertaklarga xos bo'lib, Kipling ushbu an'anani ingliz bolalar adabiyotiga moslashtirgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Biz tahlilga tortayotgan "Maugli" asari 5-sinf "Adabiyot" darsligidan joy olganligini inobatga olgan holda, o'quvchilarning yosh xususiyatlaridan kelib chiqib tahlil usullarini amaliyotga joriy qilish muhimdir.

Dastlab, o'quvchilardan asar haqida qisqacha so'rovnoma olish ularning asarga nisbatan qiziqishini oshirib boradi.

Darsning kirish qismi:

I. "Maugli" asari bo'yicha boshlang'ich bilimni aniqlash

1. Siz Maugli haqida eshitganmisiz?

- Ha
- Yo'q

2. Maugli kim?

- a) Qahramon bola
- b) SehrGAR
- c) Hayvon

3. Maugli qayerda yashagan, deb o'ylaysiz?

- a) Shaharda
- b) O'rmonda
- c) Maktabda

4. O'rmondagi hayvonlar qanday bo'ladi?

- a) Mehribon
- b) Yomon
- c) Aqlli
- d) Har xil

II. Ochiq savollar:

- 5. Agar siz o'rmonda yashasangiz, nimalardan qo'rqardingiz?
- 6. Sizga o'rmonda yashovchi qaysi hayvonlar yoqadi?
- 7. Odamlar hayvonlar bilan birga yashay oladimi?

Yuqoridagi savollar orqali o'quvchilarning boshlang'ich bilimlari aniqlanadi. Asarning hayotga tatbiqi o'rganiladi. Ochiq savollar turkumi o'quvchilarni mustaqil fikrlashga undaydi. "Maugli" janr jihatdan adabiyot ertak, sarguzasht asari va qisman tarbiyaviy-didaktik asar hisoblanadi. Shuningdek, unda animalistik adabiyot elementlari kuchli. Hayvonlar orqali insoniy g'oyalarni ifodalash bolalar uchun biroz murakkabligini hisobga olgan holda, asar tahlilini atroflicha qilish talab etiladi.



TAHLIL VA NATIJALAR

1-jadval: “Maugli” asaridagi ramziy obrazlar tahlili

Obraz	Asardagi roli	Ramziy ma'nosi	Inson jamiyatidagi ekvivalenti
Maugli	Asosiy qahramon. Inson va hayvonot olami orasidagi bola	O'zlikni anglash	Ijtimoiylashuv jarayoni
Sherxon	Asosiy antagonist	Adolatsizlik Kuchni suite'mol qilish	Adolatsiz hokimiyat
Bagira	Himoyachi, maslahatchi	Aql va strategiya ramzi	Ongli rahbar
Balu	Tarbiyachi	Axloqiy tarbiya berish	Ustoz - shogirt
Akela	Bo'rilar sardori	Adolatli boshqaruv, tartib	
Kaa	Yordamchi va xavfli obraz	Yashirin kuch	
Bandarlog	Maymunlar to'dasi	Mas'uliyatsizlik	Beqaror jamiyat
Bo'rilar to'dasi	Jamiyat modeli	Qonun	Kollektiv jamiyat

“Maugli” asaridagi obrazlar tizimi nafaqat badiiy-estetik qiymatga ega, balki chuqur tarbiyaviy va didaktik ahamiyat kasb etadi. Asar bosh qahramoni Maugli orqali inson va tabiat o'rtasidagi uyg'unlik, ijtimoiy muhitga moslashuv hamda shaxsning shakllanish jarayoni yoritilgan. Shuningdek, hayvonlar obrazi vositasida jamiyatdagi axloqiy me'yorlar, sadoqat, do'stlik, ustoz–shogird kabi tushunchalar ramziy tarzda ifodalangan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, “Maugli” asarida o'quvchilar uchun Maugli obrazi orqali shaxs kamoloti, muhit ta'siri va tanlov erkinligi masalalari ilgari surilgan. Shu jihatdan, mazkur obraz o'quvchilar uchun nafaqat qiziqarli badiiy qahramon, balki hayotiy saboqlar beruvchi muhim tarbiyaviy vosita sifatida xizmat qiladi. Obrazlar tahlili Maugli, Sherxon, Bagira, Balu, Akela, Kaa, Bandarlog va bo'rilar galasi orqali turli xulq, boshqaruv va munosabat modellarini muhokama qilish mumkinligini ko'rsatdi. Bunda ramziy ma'nolar tayyor hukm sifatida emas, matn dalillari bilan tekshiriladigan talqin sifatida taqdim etilishi lozim. 45 daqiqalik dars algoritmi individual fikrlash, juftlik dialogi, ijodiy yechim, taqdimot va refleksiyani izchil bog'laydi.

Shunday qilib, “Maugli” asarini samarali o'qitishning asosiy sharti asar mazmunini aytib berish emas, balki o'quvchiga matn dalillari asosida mustaqil xulosa chiqarish, boshqa pozitsiyani tinglash, yangicha yechim yaratish va o'z fikrini aniq ifodalash imkonini berishdir. Mazkur metodik model umumiy o'rta ta'lim maktablarida ingliz adabiyoti namunalarini kompetensiyaviy yondashuv asosida o'qitishda foydalanishga tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son¹ Farmoni. “O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”.
2. Yo'ldoshev Q., Qambarova S., To'xliyeva D., Yusufjonova N., Olimjonov O. Adabiyot. 5-sinf. II qism: umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun darslik. – Toshkent: Novda Edutainment, 2024. – 128 b.
3. Sunardi F., Ferry Dorington. The 4Cs Learning Model in Teacher Professional Development Program. Humaniora, 11(2), 153–159. <https://doi.org/10.201512/humanoria.v>
4. Белинский В. Г. О литературе и детской литературе и детском чтении. – Москва: Юрайт, 2019. – 21-bet.
5. Elboyeva M. Bolalar adabiyotini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish. – Toshkent, 2023. – B. 161.

¹ <https://lex.uz/ru/docs/-4312785>

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №8(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.